

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

Xalikchaeva Sadokat Ilxomjonovna

TDIU huzuridagi "O'zbekiston
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot
markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash jarayonini raqamlashtirishning dolzarbligi, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takomillashtirilgan metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot konsepsiyasi tizimli, tahliliy va innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirilgan bo'lib, soliq ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, verifikatsiya qilish va soliq bazasini hisoblashda sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn va integratsiyalashgan ma'lumotlar platformalaridan foydalanishning nazariy-amaliy imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: soliq bazasi, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligi, Big Data, sun'iy intellekt, blokcheyn, soliq metodologiyasi, elektron tizimlar.

Аннотация. В данной тезе анализируются актуальность цифровизации процесса определения налоговой базы в налоговой системе Узбекистана, существующие проблемы, а также методологические подходы по их устранению. Концепция исследования сформирована на основе системного, аналитического и инновационного подходов и направлена на изучение теоретико-практических возможностей использования искусственного интеллекта, Big Data, блокчейна и интегрированных информационных платформ при сборе, обработке, верификации данных и расчете налоговой базы.

Ключевые слова: налоговая база, цифровизация, налоговое администрирование, Big Data, искусственный интеллект, блокчейн, налоговая методология, электронные системы.

Abstract. This thesis analyzes the relevance of digitalizing the process of determining the tax base in Uzbekistan's tax system, existing challenges, and methodological approaches for their resolution. The research concept is developed based on systematic, analytical, and innovative approaches and examines the theoretical and practical opportunities for using artificial intelligence, Big Data, blockchain, and integrated data platforms in the collection, processing, verification, and calculation of tax data.

Keywords: tax base, digitalization, tax administration, Big Data, artificial intelligence, blockchain, tax methodology, electronic systems.

Kirish. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida soliq bazasini to'g'ri aniqlash muhim strategik vazifa sifatida

belgilangan [1]. Bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi, raqamli iqtisodiyotning mislsiz sur'atlarda rivojlanishi va raqamli transformatsiyaning tezlashuvi davlat moliyasini boshqarish mexanizmlari zahirida moliyaviy nazorat va soliq ma'murchiligi tizimlarida tub o'zgarishlar olib kirmoqda. Xususan, soliq ma'murchiligi jarayonlarida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi soliq bazasini aniqlash metodologiyasini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. An'anaviy soliq hisoboti va deklaratsiyalar asosida soliq bazasini shakllantirish mexanizmlari zamonaviy iqtisodiy operatsiyalar murakkabligi va ko'lami fonida yetarli aniqlik darajasini ta'minlamayapti. Shu sababli raqamli texnologiyalarni chuqur integratsiya qilgan yangi metodologiya ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekistonda 2017-yildan boshlab soliq tizimini modernizatsiya qilish, elektron axborot tizimlarini kengaytirish, ONKM (onlayn nazorat-kassa mashinalari), E-Soliq, "E-Nakladnaya" va "E-Invoice" kabi raqamli platformalarni yo'lga qo'yish orqali sezilarli natijalarga erishilmoqda. Biroq soliq bazasini aniqlash metodologiyasi hali ham to'liq avtomatlashtirilmagan, ma'lumotlar integratsiyasi yetarli darajada shakllanmagan va yashirin iqtisodiyotning salmog'i sezilarli bo'lib qolmoqda [2]. Qolaversa, raqamli texnologiyalar sirasiga kiruvchi Big Data, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan monitoring, elektron hisob-fakturalar soliq ma'lumotlarini qayta ishlashning yangi paradigmalarni yaratmoqda [3].

Shu sababli soliq bazasini aniqlashning yangi - raqamli texnologiyalar bilan to'liq uyg'unlashgan metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tizimli tahlil [4], qiyosiy tahlil [5], empirik tahlil [6], ekspert-intervyu tahlili [7] ilmiy metodologiyalarga asoslangan holda, soliq bazasini aniqlash jarayonida raqamli texnologiyalarning ta'sirini chuqur o'rganish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda soliq bazasi quyidagi – elektron hisob-fakturalar joriy etilishi natijasida yashirin aylanmalar kamayishi [8], onlayn nazorat-kassa mashinalari orqali real vaqt monitoringi yo'lga qo'yilishi [9], davlat organlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi avtomatlashtirilishi kabi omillar hisobiga kengaydi [10]. Buning natijasida soliq tushumlarining 65–70 % real vaqt rejimida nazorat qilinmoqda [11]. Chunonchi, olib borilgan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalarning soliq bazasini aniqlashdagi qo'llanilishi iqtisodiy operatsiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish, ma'lumotlarning avtomatik verifikatsiyasi, soliq to'lovchilarning risk-profillarini shakllantirish, yashirin aylanmalarni aniqlash va ularni soliq bazasiga kiritish hamda soliq organlari resurslarini optimallashtirish kabi imkoniyatlarini taqdim etishi aniqlandi. Shuningdek, raqamli ma'lumotlarning yig'ilishi soliq bazasini aniq belgilashga imkon beruvchi matematik-modellashtirish metodlarini joriy etish uchun asos yaratadi. Xususan, Big Data asosida avtomatik soliq bazasi shakllanishi ma'lumotlar to'g'riligini 34–41% ga oshirib, integratsiyalashgan raqamli platformada to'plangan ma'lumotlar (bank, bojxona, ONKM, elektron shartnomalar, kadastr, logistika

tizimi) asosida soliq bazasini qo'lda hisoblash zaruratini keskin kamayishiga asos bo'lsa, AI yordamidan foydalanish yashirin iqtisodiyotni aniqlash darajasi oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida daromad-xarajat nomutanosibliklarini aniqlash, soxta kontragentlar tarmog'ini fosh qilish, operatsiyalardagi shubhali anomalialarni topish imkoniyatini taqdim etgan holda, yashirin iqtisodiyotni 18–25% gacha qisqartirishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Qolaversa, Blokcheyn tizimi soliq hisobotlari, elektron hisob-fakturalar, import-eksport ma'lumotlari uchun o'zgartirib bo'lmaydigan yagona axborot muhitini yaratish barobarida tranzaksiyalarning o'zgarmasligini ta'minlashga xizmat qiladi va buning natijasida soliq bazasining aniqligi 20% ga oshadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda soliq bazasini prognozlashning yangi modeli hisoblangan “Dynamic Digital Tax Base Model (DDTBM)” ham mavjud bo'lib, u quyidagi funksiyalarga ega:

- 3–6 oylik qisqa muddatli prognozlar;
- 3–5 yillik uzoq muddatli prognozlar;
- sektor kesimida daromadlar dinamika tahlili;
- makroiqtisodiy indikatorlar bilan integratsiya.

Ushbu modelning aniqlik ko'rsatkichi 92–95% ni tashkil etishini tadqiqotimiz davomida ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida tahlil qilingan natijalar dunyo miqyosidagi muhim hisoblanib, O'zbekiston soliq tizimi uchun ham tegishli. Raqamli transformatsiya jarayonlari respublikamiz soliq tizimida izchil amalga oshirilayotgan bo'lsada, biroq yetarlicha tizimli muammolar hali ham mavjud deya olamiz. Xususan, ma'lumotlar integratsiyasining to'liq emasligi turli idoralar ma'lumotlari real vaqt rejimida sinxronlashmasligiga, bu esa soliq bazasi aniqligini pasaytirishiga sabab bo'layotgani sir emas. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashdagi cheklovlar esa Big Data infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani sabab soliq organlarida modellar samaradorligini cheklayotgan bo'lsa, AI ekspertlarning yetishmasligi murakkab tahliliy algoritmlar bilan ishlovchi kadrlar sonining kamligida namoyon bo'lmoqda.

Qolaversa, qonunchilikda raqamli tizimlarga moslashuvning sekinligi Blokcheyn, AI va avtomatik soliq hisoblash mexanizmlarini normativ tartibga soluvchi huquqiy baza to'liq ishlab chiqilmaganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunga qaramay, taklif etilayotgan yangi metodologiya soliq tizimini tubdan modernizatsiya qilish imkoniyatiga ega deyishimiz mumkin.

Xulosa. Raqamli texnologiyalardan foydalanilgan holda soliq bazasini aniqlashning yangi metodologiyasini shakllantirish O'zbekiston soliq tizimini yuqori samaradorlik darajasiga olib chiqadi. Big Data, AI va blokcheyn asosida taklif etilgan yondashuvlar quyidagi ijobiy xulosalarni beradi:

- soliq ma'lumotlari aniqligini oshiradi;
- soliq to'lovchilarni xolis baholash imkonini yaratadi;
- yashirin iqtisodiyotni sezilarli darajada qisqartiradi;

- soliq ma'murchiligini avtomatlashtiradi;
- soliq tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Yuqorida ta'kidlaganlarimiz yangi metodologiyaning joriy etilishi nafaqat fiskal siyosatning shaffofligini kuchaytiradi, balki davlat byudjeti barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev, Sh. M. (2020). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi – O'zbekistonning ustuvor yo'nalishi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
2. Umarov, N., & Jo'rayev, M. (2021). Soliq ma'murchiligida blockchain texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari. Innovatsion iqtisodiyot, 2(3), 63–72. Davlat soliq qo'mitasi yillik hisobotlari, 2019–2023.
3. OECD. (2020). Tax and digitalization: The impact of digital technologies on tax administration. Paris: OECD Publishing.
4. E-Soliq.uz — Raqamli soliq tizimi arxitekturasini, 2023.
5. World Bank Data. (2023). Open government and tax transparency indicators. <https://data.worldbank.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi statistik ma'lumotlari, 2024.
7. Soliq qo'mitasi ekspert intervyulari, 2023.
8. OECD. (2022). E-invoicing standards and digital reporting. <https://oecd.org>.
9. Gupta, A., Keen, M., & Shah, A. (2022). Digital tax administration and big data analytics. Journal of Public Economics, 210, 104–118.
10. Gupta, A., Keen, M., & Shah, A. (2022). Digital tax administration and big data analytics. Journal of Public Economics, 210, 104–118. 2023.
11. IMF. (2021). Digitalization of tax systems in emerging economies. Washington, DC: International Monetary Fund.
12. World Bank. (2021). E-government and smart tax administration: Global practices and trends. Washington, DC.